



2023: Special Issue "Problems and Prospects for the Development of Accounting, Economic Analysis and Audit Based on International Standards in the Conditions of Economy Digitalization"

KORXONALARNING KREDITGA LAYOQATLILIGI TAHLILINING USLUBIY JIHALARI

G.J. Jumayeva

QarMII, "Buxgalteriya hisobi va audit" kafedrası dotsenti.

I. Saidmurodov

QarMII, "Bank ishi va audit" ta'lim yo'nalishi 2-kurs talabasi.

Annotatsiya

Ushbu maqola O'zbekistonda amalga oshirilayotgan subsidiyalash va imtiyozlar berish amaliyoti hamda ularning iqtisodiyotga ta'siri tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: Subsidiya, imtiyoz, natural, imkoniyat, baho, soliq, taqsimot, daromad, zarar.

Kirish. O'zbekistonda mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlab, jismoniy va yuridik shaxslarni ijtimoiy-iqtisodiy qo'llab-quvvatlash tizimida subsidiyalar va imtiyozlar berish amaliyotidan keng foydalanish yo'lga qo'ildi. Ma'lumki, subsidiya ([lotincha: subsidium](#) — yordam, nafaqa, qo'llab-quvvatlash) — davlat byudjeti, mahalliy byudjetlar mablag'lari yoki maxsus fondlardan jismoniy va yuridik shaxslarga, mahalliy organlarga, boshqa davlatlarga beriladigan pul mablag'i yoki natural shaklidagi yordam¹.

Xususan, subsidiyalar davlat tomonidan ishlab chiqarish va iste'molni rag'batlantirish uchun mahsulot va xizmatlarning narxlarini past darajada ushlab turish, shuningdek, ishlab chiqarish va iste'molni rag'batlantirish maqsadida muayyan tarmoqlarga berilsa, imtiyozlar ham biror bir sohani rivojlantrish maqsadida soliqlardan yengillik, qulaylashtirilgan kreditlash yo'nalishlarda beriladi. Ammo, davlat boshqaruvida subsidiya va imtiyozlarni belgilangan me'yorlardan ko'proq ajratilishi iqtisodiy munosabatlarda samarali hisoblanmasligi iqtisodchi olimlar tomonidan ta'kidlangan.

Xususan, bu borada Prezident Shavkat Mirziyoyev imtiyozlar samaradorligi tahlili bo'yicha yig'ilishda soliq va bojxona imtiyozlarini xatlovdan o'tkazish, samarasizlarini bekor qilishni alohida ta'kidlab o'tdan: "Lekin joylarda imtiyozlardan samarasiz yoki maqsadsiz foydalanish holatlari ham uchrab turibdi. Masalan, davlat budjetidan 127 turdagi subsidiyalar joriy etilgan bo'lsa-da, amalda ularning 15 tasidan foydalanilmayapti",— deyiladi xabarda.²

Tahlil va natijalar. Kichik biznesni va tadbirkorlikni rivojlantrish, yangi tovarlarni bozorga

¹ <https://uz.wikipedia.org/wiki/Subsidiya>

² <https://www.gazeta.uz/>

kirtish, chekka hududlarni rivojlantrish va shu tariqa aholi daromadlarni oshirish hamda bo'sh ish o'rnlarini ko'paytirishga qaratilgan ko'plab imtiyozlar joriy qilindi. 2021-yilda ularning jami hajmi 51 trillion so'mni tashkil qilgan. Natijada o'tgan yili 170 mingta yangi tadbirkorlik sub'ekti ochilgan, 500 mingdan ziyod ish o'ri yaratilgan.

Tahlillar ko'rsatadiki, subsidiyalarni taqsimlashda ham o'ziga xos muammolar kuzatiladi. Masalan, ijtimoiy himoyaga muhtoj aholi qatlami uchun bir oyga 200 kw elektr energiyasiga to'lanadigan subsidiyalari narx barcha aholi qatlami tomonidan bir necha oydan foydalanilayotganligi subsidiyalarni taqsimlashdagi muammoni ifodalaydi. Ochiqlangan axborotlarga ko'ra, O'zbekistonda elektr energiyasiga subsidiya 2017-yil holatiga ko'ra 5,6 mlrd. AQSh dollar ajratilgan bo'lsa, 2020-yilda bu raqam biroz tushgan va 3,8 mlrd. AQSh dollarni tashkil qilgan. Bu ramaqlar juda ham baland bu borada dunyoda eng ko'p elektr energiyasiga subsidiya ajratish bo'yicha top 10 talik davlatlar qatoridamiz.

Tadqiqotlarimiz ko'rsatadiki, nafaqat elektr energiyasiga hattoki, atrof-muhitga etkaziladigan zararlar bo'yicha ham subsidiyalash amaliyotining qamrovi kengligini kuzatish mumkin. Ushbu holatni "Atrof-muhitga zarar etkazuvchi subsidiyalar" deb ham atash mumkin. Chunki, bunday subsidiyalar ishlab chiqarishni, transport tizimini yoki iste'molni qo'llab-quvvatlovchi va atrof-muhitga zarar etkazadigan subsidiyalarni nazarda tutadi. Bunda davlat tog'ridan-to'g'ri atrof muhitga zarar yetkazishni o'ylamaydi. Lekin ularning oqibatlaridan ko'ra iqtisodiy samara olish asosiy vazifa sifatida qaraladi va undan tabiiy muhit zarar ko'rishi mumkin. Qazib olish sanoatiga subsidiyalar berishning ekologik oqibatlari baliq ovlash yoki daraxt kesish kabi subsidiyalanadigan faoliyat bilan chambarchas bog'liq. Masalan chorvachilikga qilingan subsidiyalarning tabiatga yetkazadigan alternativ xarajatlari anchagina yuqori. Subsidiyalar haqida gap ketganda ularni tarmoqlarga bo'lib tahlil qilish uni yanada anglashga yordam beradi.

Nazariy manbalar tahlilidan ko'rinadiki, natural subsidiya tushunchasi ham mavjud. Ma'lumki, "Natural" deganda odatda tabiiy resuslar ya'ni pul ko'rnishda bo'lmagan mablag'lar tushuniladi. Hukumatlar tomonidan taqdim etiladigan odatiy natura imtiyozlari subsidiyalangan uy-joylar, maxsus infratuzilma (masalan, bitta kon yoki zavodga xizmat ko'rsatadigan yo'l), ushbu infratuzilmani saqlash uchun zarur bo'lgan xizmatlar va eksportchilarga yordam berish uchun turli xizmatlardir. Agar ular hukumat tomonidan xarajatlar (yoki o'z ichiga olgan daromadlar) bilan bog'liq bo'lsa va ular oluvchiga ma'lum foyda keltirsa, ular subsidiya deb hisoblanishi mumkin. Biroq, davlat tomonidan umumiy infratuzilma bilan ta'minlash, masalan, avtomobil yo'llari va portlar natural subsidiylarga kiritilmaydi. Natural subsidiyaning muhim variantlaridan biri bu davlatga tegishli yoki nazorat qilinadigan tabiiy resurslardan imtiyozli foydalanishdir. Misol uchun chorvachilikni rivojlantrish maqsadida chorva mollariga imtiyozli (bozor narxidan past yoki tekin) yaylovlar ajratish. Bu yerda chorvachilikda ham qaysidir darajada tashqi ta'siri mavjud yani tabiatga salbiy ta'siri bo'lishi mumkin. Tabiiy resurslardan imtiyozli foydalanishdagi imtiyozlar subsidiya sohasidagi eng munozarali yo'nalishlardan biri hisoblanadi.

Soliq tizmi rivojlangan mamalakatlarda soliq yukini kamaytirish orqali soliq imtiyozlarni xo'jalik yurutuvchi subyektlarga berish tabiiy holdir. Soliq imtiyozlarni berganda ham davlat byudjetining ma'lum qismi ishlatilgandek ta'sir qiladi. Soliq imtiyozi tufayli imkoniyat bahosi (Imkoniyat bahosi deb, bir narsa qilish imkoni bo'la turib, boshqa narsani tanlagani sababli qo'yib yuborilgan fursat qiymatiga aytiladi) riski bo'ladi.

Xulosa. Imtiyoz va subsidiyalar bozor muozanatiga davlat aralashuvi, bunda davlat rag'batlarni to'g'ri aniqlagandagina bu imtiyozlar o'z samarasini berishi mumkin. Shu jihatdan davlat tashqi ta'sirlar

bor joyda o'z imtiyozlarni qo'llashi mumkin. Tashqi ta'sirlar ham ijobiy va salbiy bo'linishi mumkin, ekalogiyaga toza havoga zaharli gaz chiqaradigan va chiqindilari ham ko'p chiqadigan sohalar salbiy deb oladigan bo'sak ularga qarshi imtiyozlar qo'llashimiz mumkin, masalan, soliq stavkasini yuqoriroq qilish orqali choralar ko'rish mumkin. Ijobiy tashqi ta'sirlarga jamyatga foydasi tegadigan yani buxgalterlik foydasi nolga teng bo'lsa ham qandaydir jamyatga foyda keltiradigan yo'nalshga ega bo'lsa misol uchun ta'lim yo'nalishida nimadir ochgan bo'lsa unga ijobiy imtiyozlar qo'llashimiz mumkin.

Shuningdek so'ngi yillarda milliy iqtisodiyotimizda kambag'allikni qisqartirish, chekka hududlarni rivojlantrish masalasida ham subsidiya va imtiyozlardan keng foydalanilmoqda. Kambag'allikni qisqartirishni yagona yo'li iqtisodiy taraqqiyotni ta'minlab berish. Biz qaysidir sohani rivojlantrish dasturlari yoki ijtimoiy ko'maklar orqali bunga yondashsak biz o'zimizdi yaxshiroq xis qilarmiz lekin bu maqsadning ildiziga olib bormaydi. Shuning uchun bularni samarasiz deb baholagan bo'lardim. Barcha resurslarni, xohishlarimizni iqtisodiy taraqqiyotga qaratsak qaysidir yaxshiroq bo'lardi. Shu jihatdan yaxshi xulosalar yoki g'oyalar shundaki ko'p masalalarda odamlarga subsidiya evaziga emas naqd pul orqali yordam ko'rsatishimiz kerak. Pulga muhtoj oilalar o'zining birlamchi ehtiyojni bilgan holda bu mablag'lardan ancha samarali foydalanishadi. Eng muhimi shundandaki imtiyoz bormi uning albatda xarajati ham bor, kimdirdan nimanidir olish evaziga kelyabdi deb tushinishimiz kerak. Har bitta imtiyozni manfadorlari bo'lganidek undan zarar ko'radiganlar ham bor. Biz foyda oladigalarni ko'proq o'ylaganimiz tufayli zarar ko'radiganlarni esdan chiqarib qo'yamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Global subsidiyalar tashabbusi barqaror rivojlanish institute Jeneva, Shveysariya "Subsidy premier" kitobi.
2. АМИНОВ Ф.Б. (2022). НАПРАВЛЕНИЯ РАЗВИТИЯ ПРОИЗВОДСТВЕННОЙ КООПЕРАЦИИ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН. Экономика и социум, (10-1 (101)), 232-237.
3. АМИНОВ, Ф. Б. (2022). УСЛОВИЯ ФОРМИРОВАНИЯ ЦИФРОВОЙ ЭКОНОМИКИ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН.
4. Эгамбердиева, С. Р. (2021). ИҚТИСОДИЙ ИСЛОҲОТЛАР ЖАРАЁНИДА ИНВЕСТИЦИЯЛАР ҲИСОБИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ МАСАЛАЛАРИ. Экономика и финансы (Узбекистан), (4 (140)), 42-47.
5. Эгамбердиева, С. Р. МОЛИЯВИЙ ҲИСОБОТНИНГ ХАЛҚАРО СТАНДАРТЛАРИГА ЎТИШНИНГ ЎЗИГА ХОС ХУСУСИЯТЛАРИ ВА АҲАМИЯТИ.« ИННОВАЦИОН ИҚТИСОДИЁТ: МУАММО, ТАҲЛИЛ ВА РИВОЖЛАНИШ ИСТИҚБОЛЛАРИ» Халқаро илмий-амалий анжуман илмий мақолалар тўплами 20-21 май 2021 й, 460.
6. Jumayeva, G. J. R., & qizi Sultonova, M. O. (2022, December). FERMER XO 'JALIKLARINING MOLIYAVIY NATIJALARGA TA'SIR QILUVCHI OMILLARNI HISOBLASH YO 'LLARI. In *INTERNATIONAL CONFERENCES* (Vol. 1, No. 18, pp. 127-130).
7. Tursunov, I., Jumayeva, G., & Ostanov, K. (2017). Features of innovation development of the economy Uzbekistan. In *International conference on scientific development in North America* (pp. 43-49).
8. Равшанов А. Д. Абдисалом Дусиёрович, Хасанов Шамсиддин Хафизович, & Алимханова Нигора Алимхановна (2018). Қишлоқ хўжалигини инвестицион-

- инновацион ривожлантириш имкониятлари ва истиқболлари. Экономика и финансы (Узбекистан), (11), 9-14.
9. Murodova, N. U., Temirova, F. S., Alimkhanova, N. A., Dostova, M. K., & Azimova, K. E. IMPROVING THE CALCULATION OF INVENTORIES OF GOODS IN ACCOUNTING.
 10. Эргашева, Н. (2022). ҚИШЛОҚ ХЎЖАЛИГИ КОРХОНАЛАРИДА ҲИСОБ СИЁСАТИНИНГ ТАШКИЛИЙ-УСЛУБИЙ ТАЪМИНОТИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ. *Innovatsion texnologiyalar*, 1(04), 108-111.
 11. Azimova, N. E. (2022). ISSUES OF DEVELOPMENT OF FOREIGN TRADE WITH THE HELP OF FOREIGN INVESTMENTS. *Gospodarka i Innowacje.*, 29, 183-188.
 12. Эгамбердиевна, А. Ҳ. (2021). ХОРИЖИЙ ИНВЕСТИЦИЯЛАРНИ ЖАЛБ ЭТИШДА ҲУҚУҚИЙ ВА ИНСТИТУЦИОНАЛ АСОСЛАРНИНГ АҲАМИЯТИ. *Журнал Инновации в Экономике*, 4(5).
 13. Azimova, N. E. (2022). INCREASING INVESTMENT ATTRACTIVENESS OF REGIONS. *Gospodarka i Innowacje.*, 29, 178-182.
 14. Azimova, N. E. (2022). ISSUES OF DEVELOPMENT OF FOREIGN TRADE WITH THE HELP OF FOREIGN INVESTMENTS. *Gospodarka i Innowacje.*, 29, 183-188.
 15. Музаффарова, К. З. (2021). МИНТАҚА ИҚТИСОДИЁТИГА ХОРИЖИЙ ИНВЕСТИЦИЯЛАРНИ ЖАЛБ ЭТИШ ҲОЛАТИ ВА ИСТИҚБОЛЛАРИ. *Архив научных исследований*, 1(1).
 16. Музафарова, К. З. (2019). Роль иностранных инвестиций в развитии национальной экономики Узбекистана. *Экономика и предпринимательство*, (1), 411-414.
 17. NORMAMATOVICH, K. O., EGAMBERDIYEVNA, A. K., & HAKIMOVICH, B. K. Creating a Favorable Environment for Attracting Foreign Investment and Strengthening Its Legal Framework. *JournalNX*, 6(05), 53-56.
 18. Khakimovich, B. K. . (2022). Development of Private Capital Financial Statement Audit Methodology in Accordance with International Standards. *European Multidisciplinary Journal of Modern Science*, 4, 299–303.
 19. Farmanov , J. Z., Rimboyeva , N. X. qizi, & Rimbayeva , G. X. qizi. (2023). QISHLOQ XO‘JALIGINI RAQAMLASHTIRISHDA HORIJ TAJRIBASIDAN FOYDALANISH. *GOLDEN BRAIN*, 1(1), 231–236. Retrieved from
 20. Farmanov J. UKRAINIAN EXPERIENCE IN DEVELOPING THE BEEKEEPING NETWORK IN OUR COUNTRY //European International Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies. – 2022. – Т. 2. – №. 09. – С. 66-69.
 21. Ochilov, A. O., Ostonov, E., Shodiev, B. T., Ergashev, T. S., & Khakkulov, F. F. (2022). Modern Approaches To Management Of Training Of Highly Qualified Personnel In The New Uzbekistan Higher Education System. *Journal of Positive School Psychology*, 6(10), 2432-2442.
 22. Шодиев Б.Т. ПРИОРИТЕТНЫЕ НАПРАВЛЕНИЯ ЭФФЕКТИВНОГО ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ПАСТБИЩ // Экономика и социум. 2022. №10-1 (101). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/prioritetnye-napravleniya-effektivnogo-ispolzovaniya-pastbisch> (дата обращения: 28.02.2023).
 23. Бердиев, А. Х., & Расулов, Х. К. (2020). Туризм-перспективный сектор экономики Узбекистана. *Economics*, (2 (45)), 14-18.

24. Hakimovich, B. A. (2021). Prospects for Innovative Agricultural Development. *Academic Journal of Digital Economics and Stability*, 350-356.
25. Туробов, Ш. А. (2021). ҚИШЛОҚ УЙ ХЎЖАЛИКЛАРИДА АЁЛЛАР МЕҲНАТИДАН ФОЙДАЛАНИШ ИСТИҚБОЛЛАРИ. *Журнал Инновации в Экономике*, 4(5).
26. Turobov, S. A., & Faxriddinov, B. F. (2021). DEVELOPMENT OF HOME-ENTREPRENEURSHIP-GUARANTEE OF AGRICULTURE STRATEGY. *International journal of trends in marketing management*, 9(1).
27. Усанов, А., & Раҳмонкул, Д. (2019). Ўзбекистон иқтисодий ривожланишида камерал назоратнинг тугган ўрни. *Экономика и финансы (Узбекистан)*, (11), 55-60.
28. Джалилов, Р. (2023). ҚЎШИЛГАН ҚИЙМАТ СОЛИҒИ БЎЙИЧА ИМТИЁЗЛАР ҲИСОБИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ. *Economics and education*, 24(2), 272-278.
29. Iskandarovich, R. R. (2022). QISHLOQ XO 'JALIGIDA AGROKLASTERLARINI BARPO ETISHNING HORIJ TAJRIBALARI. *Gospodarka i Innowacje.*, 24, 390-394.
30. Рашидов, Р. И., & Муртазаев, Н. Р. (2020). DIRECTIONS OF INNOVATIVE AGRICULTURAL DEVELOPMENT. *ЖУРНАЛ АГРО ПРОЦЕССИНГ*, 2(7).
31. TUYGUNOVICH, A. A., OGLI, S. O. A., & QIZI, K. Z. K. Problems of Improving Stock Market Trading Mechanisms in Uzbekistan. *JournalNX*, 6(07), 330-334.
32. Aliqulova, A. (2020). ANALYSIS OF THE ACTIVITIES OF SECURITIES OF COMMERCIAL BANKS AT THE RSE "TASHKENT". *International Finance and Accounting*, 2020(1), 13.
33. Маматов, А. А., & Хуррамов, А. Ф. (2017). Иностранные инвестиции как фактор экономического роста Республики Узбекистан. *Экономика и предпринимательство*, (10-2), 98-101.
34. Хуррамов, А. (2012). О монографии ИС Абдулаева «ПРОГНОЗИРОВАНИЕ СОЦИАЛЬНОГО РАЗВИТИЯ РЕГИОНА». *ва молия Экономика*, 50.
35. Хуррамов, А. Ф. (1993). Арендные отношения и пути их совершенствования в условиях перехода к рыночной экономике (на примере хлопководческих совхозов).
36. Узоков, Н., Хушмурадов, О. Х., & Бабаева, Л. (2014). РОЛЬ ИНВЕСТИЦИИ В МОДЕРНИЗАЦИИ И РАЗВИТИИ ПРЕДПРИЯТИЙ В УСЛОВИЯХ РЫНОЧНОЙ ЭКОНОМИКИ. In *ФЕНОМЕН РЫНОЧНОГО ХОЗЯЙСТВА: ОТ ИСТОКОВ ДО НАШИХ ДНЕЙ* (pp. 376-378).
37. Oman, X., & Alisherovich, T. S. (2022). THE ROLE AND IMPORTANCE OF CLUSTERS IN THE AGRICULTURAL SECTOR. *Gospodarka i Innowacje.*, 29, 202-206.
38. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Subsidiya>
39. <https://www.gazeta.uz/>